



**XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
QARORI**

2023 - yil 27 - noyabr

VI-66-125-5-73-K/23

Navbahor tuman hokimligi

Navbahor tumanida axoli sog‘ligini tiklash va sog‘lom turmush tarzini tatbiq qilish borasida tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan 2023 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Navbahor tuman tibbiyat birlashmasi boshlig‘i B.G.Gafarovning “Navbahor tumanida axoli sog‘ligini tiklash va sog‘lom turmush tarzini tatbiq qilish borasida tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan 2023 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisobotini muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Navbahor tuman tibbiyat birlashmasi boshlig‘i B.G.Gafarovning “Navbahor tumanida axoli sog‘ligini tiklash va sog‘lom turmush tarzini tatbiq qilish borasida tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan 2023 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari va tegishliligi bo‘yicha barcha mas'ullarga:

Tumanda aholi sog‘ligini saqlash va sog‘lom turmush tarzini tatbiq qishlish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishni tizimli davom ettirish;

Aholi o‘rtasida turli yuqumli va boshqa turdag'i kasalliklar tarqalishini oldini olish yuzasidan doimiy nazoratni kuchaytirish;

Aholi o‘rtasida kasalliklarni oldini olish va fuqarolar sog‘ligini tiklash

maqsadida to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish;

Yoshlar va ayniqsa xotin-qizlar salomatligiga assosiy e'tiborni qaratish;

Uzoq muddatli mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

3. Navbahor tumanida axoli sog‘ligini tiklash va sog‘lom turmush tarzini tatbik qilish borasida tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ustidan doimiy ravishda deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (A.Tuxliyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Ўроқов